

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ABDULLAYEV AKMAL AMIROVICH

**TOSHKENT VILOYATI TOPONIMLARINING LINGVOMADANIY
TADQIQI**

10.00.01 –O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по филологическим
наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on Philological
Sciences**

Abdullayev Akmal Amirovich

Toshkent viloyati toponimlarining lingvomadaniy
tadqiqi.....3

Абдуллаев Акмал Амирович

Лингвокультурологическое исследование топонимов Ташкентской области
.....23

Abdullaev Akmal Amirovich

Linguocultural study of toponyms of the Tashkent
region.....46

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works50

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ABDULLAYEV AKMAL AMIROVICH

**TOSHKENT VILOYATI TOPONIMLARINING LINGVOMADANIY
TADQIQI**

10.00.01 –O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Fil1919 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti veb-sahifasining www.tsuull.uz hamda «Ziyonet» axborot-ta’lim portalining www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sobirov Abdulxay Shukirovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xolmanova Zulxumor Turdiyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Turdibekov Mo‘minjon To‘rayevich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «___» _____ soat___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@www.tsuull.uz.)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil «___» _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

H.A.Dadaboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

Q.U.Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filol.f.d., professor

S.Ashirboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida toponimik birliklarning tilshunoslik, tarix, geografiya, etnografiya masalalariga oid xususiyatlari tadqiq etilmoqda. Bugungi kunda muayyan arealga xos toponimik birliklarning barcha turlarini yaxlit bir butun tizim sifatida antropotsentrik, sotsiolingvistik, semantik, tarixiy-etimologik jihatdan tadqiq etishga talab ortmoqda. Toponimlarni lingvistik aspektda o'rganish, leksik birlik sifatidagi nomlash xususiyatlarini tahlil qilish, onomastik birliklar semantikasini yoritish, tarixiy, madaniy, uslubiy semalarni tadqiq qilish dolzarb hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida lingvistik, tarixiy, geografik toponimika, areal lingvistikaga oid izlanishlar yuzaga kelmoqda. Toponimlarni lisoniy jihatdan tahlil qilish, ayniqsa, semantik xususiyatlarini o'rganish xalqning milliy, etnik, ijtimoiy-siyosiy, madaniy tarixini, tilning tarixiy taraqqiyoti va takomilini yoritishda; nominativ, kommunikativ, akkumulyativ funksiyalari mohiyatini aks ettirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda o'zbek tili toponimikasi ancha rivojlangan bo'lsa-da, respublikamizning ko'pgina hududlari, jumladan, Toshkent viloyati mikrotoponimiyasi lingvomadaniy jihatdan tadqiq etilmagan. "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot bo'lsa, ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat."¹ Ushbu fikrlar, albatta, o'zbek tili toponimikasiga ham taalluqlidir. Bugungi kunda o'zbek toponimikasi oldiga barcha viloyatlar mikrotoponimiyasini zamonaviy tilshunoslik yutuqlari asosida tadqiq etish vazifasi qo'yilmoqda. Toponimlar semantikasining ekstralingvistik xususiyatlarini lisoniy, tarixiy-etimologik, geografik, etnologik, lingvomadaniy yondashuvlar uyg'unligida o'rganish ham ana shunday vazifalar sirasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2019-yil 21-oktabrdagi o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, 2021-yil 19-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi hamda

¹ Мирзиёев Ш. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик – миллий ғоямизнинг пойдеворидир. – Тошкент: Тасвир, 2021. – Б. 4.

mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida joy nomlarining lingvomadaniy jihatlari shu joyga mansub aholining folklori va mahalliy tarixi bilan bog'liq holda T.Tichelaar, A.D.Mills, W.Bright kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.² Rus onomastikasida L.A.Klimkova, Y.A.Sizova, A.V.Urazmetova, L.N.Davletkulovalarning ishlarida joy nomlarining lingvomadaniy jihatlari frazeologik birliklar tarkibida hamda G'arbiy Yevropa mamlakatlariga mansub joy nomlari bilan qiyosiy o'rganish asnosida tadqiq etilgan.³

Mustaqillikka erishilgandan so'ng o'zbek toponimikasining taraqqiyoti me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tizimlashtirildi.⁴ Keyingi yillarda toponimlarning tilshunoslik, tarix, geografiya fanlari nuqtayi nazaridan tadqiqi borasida bir qator ilmiy ishlar amalga oshirildi, ushbu yo'nalishda ko'plab nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Ularda o'zbek onomastik terminlari, toponimlari lingvistik aspektda tahlil etildi.⁵ Shuningdek, o'zbek

² Tichelaar T. Toponymy and language. Toponymy Course. – Frankfurt Main: DGSD-UNGEGN Press, 2002. – 17 p.; Mills A.D. Dictionary of English Place-Names. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – 411 p.; Bright W. Native American Placenames of the United States. – Oklahoma: University of Oklahoma Press, 2004. – 600 p.

³ Климова Л.А. Нижегородская микропонимия в языковой картине мира. Дисс. ... докт. филол. наук. – М., 2008. – 534 с.; Сизова Е.А. Лингвокультурологический анализ урбанонимов: На материале английского, русского и французского языков. Дисс. ... канд. филол. наук. – Пенза, 2004. – 199 с.; Уразметова А.В. Лингвокультурологический аспект изучения топонимов в составе фразеологических единиц: на материале английского и французского языков. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2006. – 24 с.; Давлеткулова Л.Н. Топонимы в лингвокультурологическом аспекте (на примере географических названий графства Оксфордшир и Челябинской области). Дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 2014. – 220 с.

⁴ 1996 йил 30 августдаги "Ўзбекистон Республикасидаги маъмурий-худудий тузилиш, топонимик объектларга ном бериш ва уларнинг номларини ўзгартириш масалаларини ҳал этиш тартиби тўғрисида"ги қонун; Ўзбекистон Республикасининг "Географик объектларнинг номлари тўғрисида"ги қонуни. Халқ сўзи, 2011, 13 октябрь, №198; 2022 йил 2 ноябрдаги Ўзбекистон Республикасининг "Географик объектларнинг номлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида"ги Қонуни.

⁵ Закиров А. Топонимия Джизакской области Узбекской ССР. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1991. – 20 с.; Нуриддинова Р.С. Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний таҳлили. Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 23 б.; Эназаров Т. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари. Филол. фан. док. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2006. – 56 б.; Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Тошкент: Фан, 2006. – 129 б.; Бўриев С. Ургут тумани микропонимларининг лексик-семантик таҳлили. Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 23 б.; Йўлдошев Б. Ўзбек ономастикаси масалалари. – Самарқанд: СамДУ, 2011. – 112 б.; Ҳақимов Қ. Жиззах вилояти топонимлари. – Жиззах: Сангзор, 2014. – 214 б.; Эназаров Т., Хусанова М., Есемуратов А. Ўзбек номшунослиги. – Тошкент: Наврўз, 2015. – 225 б.; Аҳмедов С. Жиззах вилояти топонимларининг семантик хусусиятлари. Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD)... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 45 б.; Анорқулов С. Немис ва ўзбек тилларида топонимларнинг лингвокогнитив аспекти. Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD)... дисс. автореф. – Самарқанд, 2021. – 60 б.; Юлдашев Д. Атоқли отларнинг антропоцентриқ тадқиқи. Филол. фан. док. (DSc)... дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 75 б.; Турдибеков М.

etnotoponimlari, gidronimlari, oronimlari hamda oykonimlari ham atroflicha tadqiq etildi.⁶ Natijada o'zbek toponimik leksikografiyasi rivojlandi va ma'lum yutuqlarga erishildi.⁷ Zamonaviy lingvistikaning ilmiy-nazariy qoidalari va tamoyillari asosida badiiy asar matnidagi onomastik birliklar, toponimlarning lingvistik xususiyatlari lingvokulturologik, poetik jihatdan tadqiq etildi.⁸ Olib borilgan tadqiqotlar ichida qadimiy va navqiron Toshkent viloyatidagi joy nomlari bo'yicha V.Reshetov, T.Fayziyev, Sh.Qodirova, M.Ramazonovalarning dissertatsiyalari ham alohida o'rin tutadi.⁹ S.Qorayevning bir qancha ilmiy ishlarida ham o'z davrida Toshkent viloyati toponimiyasiga oid qimmatli ilmiy ma'lumotlar berildi.¹⁰

Toshkent viloyati bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning aksariyati o'z davri toponimik tadqiqotlaridagi an'anaviy usulda bajarilgan bo'lib, ularda Toshkent viloyati toponimlarining shakllanishida hududning o'ziga xos tarixiy-etnografik, ijtimoiy-iqtisodiy hamda geografik xususiyatlari, mahalliy nomlar, joy nomlariga asos bo'lgan etnonimlarning o'rni va ahamiyati, ularning etimologiyasi hamda viloyat toponimiyasini tizimlantirishga doir muammolar tahlil qilingan. Biroq, hudud toponimiyasining lingvomadaniy jihatdan tadqiqi, antropotsentrik nuqtayi nazardan mazkur areal joy nomlarining tasnifi va tavsifi monografik jihatdan tadqiqot obyektida maxsus o'rganilmagan. Tilshunoslik faniga sistem-struktur metodlarning kirib kelishi, tilni uning sohiblari bilan birgalikda tadqiq etishga, ya'ni lingvomadaniyatshunoslik faniga keng yo'l ochilishi Toshkent viloyatidagi joy nomlarining ilm-fanga ma'lum bo'lmagan jihatlarini yoritish

Шимолий Тожикистон топонимларининг тарихий-лингвистик хусусиятлари. Филол. фан. док. (DSc)... дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 66 б.

⁶ Отажонов А. Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг луғавий асослари. Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 24 б.; Санакулов У. Топонимлар таркибида этнонимлари. – Тошкент: Ворис, 2016. – 124 б.; Бегалиев Н. Самарқанд вилояти гидронимлари (лисоний таҳлил). Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1994. – 25 б.; Туробов А. Самарқанд вилояти этнонимларининг таҳлили: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 22 б.; Мамбетова Г. Қорақалпоғистоннинг шимолий туманлари гидронимлари. Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD)... дисс. автореф. – Нукус, 2018. – 52 б.; Темиров Ш. Самарқанд вилояти оронимларининг лисоний тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD)... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 52 б.; Холмуратов И. Жанубий Қорақалпоғистон ойконимларининг лисоний тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD)... дисс. автореф. – Бухоро, 2020. – 45 б.

⁷ Ҳасанов Ҳ. География терминлари луғати. – Тошкент: Фан, 1964. – 96 б.; Дўсимов З., Эгамова Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – 176 б.; Қораев С., Ғуломов П., Раҳимбеков Р. Географик терминлар ва тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1979. – 127 б.; Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – 290 б.; Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган: НамДУ, 2006. – 104 б.; Xudoyberganov R.Y. va boshq. O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 624 b.

⁸ Маматов А. Замонавий лингвистика. – Тошкент: Ношир, 2019. – 168 б.; Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – 136 б.; Худойбердиева М. Бадий асардаги топонимларнинг лингвистик хусусиятлари ва изоҳи масаласи (Пиримқул Қодировнинг “Юлдузли тунлар”, “Хумоюн ва Акбар” романлари материаллари асосида). – Самарқанд: СамДУ, 2006. – 136 б.; Анданиёзова Д. Бадий матнда ономастик birliklar лингвопоэтикаси. Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 48 б.

⁹ Решетев В.В. Кураминские говоры Ташкентской области. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1952. – 49 с.; Файзиев Т. Узбеки-Курама: В прошлом и настоящем. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1963. – 24 с.; Кадырова Ш.М. Микротопонимы Ташкента. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1970. – 28 с.; Рамазонова М.Н. Развитие ойконимии Ташкентской области в советский период. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1986. – 20 с.

¹⁰ Қораев С. Тошкент топонимлари. – Тошкент: Фан, 1991. – 64 б.; Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 240 б.

uchun imkoniyat yaratmoqda. Mazkur tadqiqot ishi aynan mana shu masalaga bag'ishlanganligi bilan dolzarb sanaladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Tillarning taraqqiyotida ijtimoiy munosabatlar va ularning hududiy kengayishi" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Toshkent viloyatining tog' va tog'oldi hududlari toponimlarini lingvomadaniy jihatdan aniqlash, shu asosda leksik birliklar nomlash xususiyatining ekstralingvistik jihatlarini yoritish, toponimlar semantikasini, madaniy semalarning ifodalanish darajasini aniqlash, Toshkent viloyati toponimiyasining o'ziga xos lingvomadaniy manzarasini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Toshkent viloyati toponimlarini antropotsentrik aspektda lingvomadaniy tasniflash va tavsiflash;

tabiiy-geografik va ijtimoiy-iqtisodiy toponimlar semantikasining ekstralingvistik xususiyatlarini yoritish;

etnotoponimlarning nominatsion-motivatsion va etimologik tahlilini amalga oshirish;

Toshkent viloyati toponimiyasining o'ziga xos lingvomadaniy manzarasini belgilash.

Tadqiqotning obyektini Toshkent viloyatining Ohangaron, Parkent, Bo'stonliq, Qibray tumanlari hamda Chirchiq shahridan to'plangan 1000 dan ortiq toponimlar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini joy nomlarini lingvomadaniy tadqiq etishning nazariy asoslari, joy nomlarining lingvomadaniy guruhlari, joy nomlarining nomlanish motivida madaniy omillar va u bilan bog'liq folklor namunalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada lisoniy tavsiflash, leksik-semantik, qiyosiy-tarixiy, etimologik, statistik, areal tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Antropotsentrik yondashuv asosida Toshkent viloyati toponimlarini lingvomadaniy baholash natijasida o'zbek tili toponimik ko'lamining ko'p komponentli va keng qamrovli ekstralingvistik jihatlari ochib berilgan;

toponimlarning xalq tarixi, madaniyati, tafakkuri, ruhiyati hamda ijtimoiy munosabatlarini yorituvchi lingvokulturema sifatidagi semantik xususiyatlari ochib berilib, ularda aks etuvchi milliy-madaniy belgilar lingvomadaniyatshunoslikka oid "madaniy kod" tarzida dalillangan;

joy nomlari lingvomadaniy guruhlarga ajratilib, aholining kasb, hunar va mehnat jarayonlari; urf-odatlar, qadriyatlar asosida shakllangan hamda aholining dunyoqarashi, e'tiqodi va tafakkuri bilan bog'liq joy nomlari tarzida dalillangan;

toponimlar semantikasidagi madaniy semalar, ularning shakllanishida shaxs omilining muhim o'ringa egaligi hamda Toshkent mikrotoponimiyasining boshqa areallar bilan umumiy jihatlari va o'ziga xos farqli xususiyatlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilarda aks etgan:

hudud mikrotoponimiyasi bo'yicha to'plangan materiallar, qo'yilgan muammolarni tadqiq etish natijasida chiqarilgan xulosalar va umumlashtirilgan fikrlar hozirgi o'zbek tilshunosligi, xususan, toponimikasi uchun muhim zaruriy, ilmiy ma'lumot berishi, o'zbek tili toponimikasi bo'yicha tadqiqotlar yaratishda manba bo'lib xizmat qilishi, leksikologiya, onomastika, toponimika va lingvomadaniyatshunoslik fanlarini o'qitishda amaliy jihatdan yordam berishi asoslangan;

toponimlarning lingvomadaniy tadqiqi natijalari toponimika bo'yicha izohli, ta'birli va imlo lug'atlari yaratilishida, o'zbek tili milliy korpusini shakllantirishda material va manba sifatida xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlilga tortilgan materiallar o'zbek tili va toponimik areal tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilish imkonini berganligi, ularning asosligi, metodologik mukammalligi, shuningdek, qo'yilgan masalalarning aniqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilmiy xulosalar o'zbek tili onomastikasini toponimiya haqidagi lingvomadaniy qarashlar bilan boyitishi, toponimik arealdagi etnik, ijtimoiy, lisoniy, tarixiy, milliy-ruhiy va geografik o'zgarishlarni kuzatish imkonini berishi, tadqiq usullaridan boshqa hududlar toponimiyasini ilmiy jihatdan o'rganishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati undagi materiallar, natija va xulosalarning o'zbek toponimikasiga oid darslik va qo'llanmalar yozishda, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida O'zbekiston toponimikasi bo'yicha maxsus kurslar, shuningdek, geografiya fakultetlarida "Toponimika va geografik terminshunoslik" fanini, tarix fakultetlarida "Tarixiy o'lkashunoslik", akademik litsey va maktablarda ona tili darslarida joy nomlariga doir mavzularni o'qitishda, Toshkent viloyati toponimlarining izohli va lingvomadaniy lug'atini tuzishda manba vazifasini bajarishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Toshkent viloyati toponimlarini lingvomadaniy tadqiqi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Toshkent viloyati toponimlarining leksik-semantik, tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy hamda lingvomadaniy jihatlari va xususiyatlariga oid xulosalardan Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi toponimik komissiya tomonidan viloyatdagi tabiiy-geografik obyektlar, xususan, aholi manzillari nomini o'zgartirish, yangilariga nom berish, tartibga solishda, tarixiy nomlarni tiklashda, mahalla nomlarini o'zgartirishda, yozilishidagi imloviy xatolarni bartaraf etishda foydalanilgan (Toshkent viloyati hokimligining 2023-yil 19-iyuldagi 8-3-3229-son ma'lumotnomasi). Natijada O'zbekiston Respublikasining toponimik siyosatini bajarishga, hudud toponimikasida tarixiy nomlarni tiklashga, turkiy nomlar miqdorining oshishiga erishilgan;

Toshkent viloyati aholisining kasb-kori, hunari va mehnat jarayonlari; etnik, milliy urf-odatlar va qadriyatlar hamda aholining dunyoqarashi, e'tiqodi va tafakkuri bilan bog'liq joy nomlaridan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining targ'ibot va tashviqot, ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi ma'naviyat va ma'rifat markazining

2023-yil 7-avgustdagi 02-22/754-sonli dalolatnomasi). Natijada toponimlarning shakllanishida shaxs omilining oʻrni haqidagi mulohazalar amaliy asoslantirilgan;

Toponimlar bilan bogʻliq naql va rivoyatlar oʻzbek xalqining ogʻzaki va yozma yodgorliklari, milliy-madaniy meros namunalari, yaʼni lingvokulturemalar sifatida oʻzbek tilining ijtimoiy va leksikologik imkoniyatlaridan foydalanishni oshirishiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetida 2019-2022-yillarda bajarilgan AM-FZ-201908172-raqamli “Oʻzbek tilining taʼlimiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 24-avgustdagi 04/1-1558-son maʼlumotnomasi). Natijada oʻzbek tilining taʼlimiy korpusida tilning onomastik koʻlamidagi koʻp asrlik milliy-madaniy merosdan unumli foydalana olish, til hodisalarining barcha qirralarini toʻliq namoyon etish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta respublika, 9 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 22 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta (shulardan 7 ta respublika hamda 1 ta xorijiy jurnalga tenglashtirilgan mahalliy jurnal va 2 ta xorijiy jurnalda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati hamda ilovadan iborat. Tadqiqotning hajmi 124 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi koʻrsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqotning joriylanishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida maʼlumot berilgan.

Dissertatsiyaning “**Joy nomlarini lingvomadaniy tadqiq etishning nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobi uch fasldan iborat. Uning birinchi fasli “*Joy nomlariga tizim sifatida ilmiy yondashuv*” deb nomlangan. Bugungi kunda tilni uning sohibi sanalgan Inson shaxsi bilan birgalikda tadqiq etish dunyo lingvistika fanining istiqbolli yoʻnalishlaridan biriga aylandi. Shunday yoʻnalishlardan birini lingvomadaniyatshunoslik tashkil etadi. Har bir tilning oʻziga xos toponimik mikrosistemalari mavjud boʻlib, ularning milliy-mental kataloglarini yaratish, toponimlarni faqatgina semantik, etimologik, morfologik va fonologik jihatdan emas, yangicha – lingvokognitiv, sotsialingvistik va lingvomadaniy aspektlarda tahlil qilish joy nomlarining bizga maʼlum boʻlmagan, yangicha mazmundagi semantik qirralarini ochishga koʻmaklashadi.

Lingvomadaniyatshunoslikda til va madaniyat mutanosibligi namoyon boʻladi. Toshkent viloyati toponimlarining lingvomadaniy tadqiqi va tahlili,

ularning tarixi va etimologik talqini, lisoniy tuzilishi va madaniy ahamiyati, toponimlarning voha aholisi til madaniyatidagi o'ziga xos xususiy jihatlari ana shu mutanosiblikda voqelanadi. Masalan, Toshkent viloyati toponimlari ichida *Go'shqo'rg'on*, *No'g'oyqo'rg'on*, *Qozoqovul*, *Qirg'izovul*, *Munchoqtepa*, *Suyritepa*, *Boburtepa*, *Jo'jicho'kkantepe*, *Tovkattepa*, *Shampan*, *Nevich*, *Nanay*, *Urungach*, *Oygaing*, *Aflotun*, *Лагерный*, *Азотчук* kabi turli xalq va elatlarga, shu yerda yashovchi aholining dunyoqarashiga mos nomlar lingvomadaniy belgilarining ochib berilishi viloyat tarixi, aholining urf-odatlariga haqida yangi ma'lumotlarni taqdim etadi.

Joy nomlarini tizim sifatida tasniflashda *tizim (sistema)* va *tuzilish (struktura)* iboralariga to'xtalib o'tish o'rinli bo'ladi. «Sistema» yunoncha so'zdan olingan bo'lib, «butun», «qo'shma», «birlashma», «yig'ma», «uyushma» ma'nolarini anglatadi. Bu oddiy yig'indi emas, balki o'zaro bog'lanishda va o'zaro ta'sirda bo'lgan qismlardan, elementlardan tashkil topgan majmuadir.¹¹

Til dinamik dissipativ («sochilish», «yoyilish», «tarqalish» ma'nolarini anglatuvchi inglizcha «dissipate» so'zidan kelib chiqqan) xarakterga ega. Buni Toshkent viloyatidagi toponimlar misolida kuzatish mumkin. Masalan, ushbu hududdagi *qipchoq*, *jaloyir*, *qangli*, *yuz* kabi etnotoponimlar faqatgina bu hududga taalluqli bo'lmasdan, respublikaning boshqa hududlarida ham mazkur etnonimlar bilan nomlangan joylarni uchratish mumkin. Bu esa, toponimlarning dinamik dissipativ, ya'ni yoyiluvchi xususiyatga ega ekanligini namoyon etadi.

«Til va tafakkur taraqqiyoti jamiyat, til egasi mansub bo'lgan millat tarixi bilan uzviy bog'liqdir.»¹² Til millat tarixi bilan uzviy bog'liq ekan, bu holat uning qaysidir davrlarida joy nomlariga berilgan atoqli otlari bilan ham bog'langan bo'ladi. Tadqiqot uchun obyekt vazifasini o'tagan *Ohangaron*, *Parkent*, *Bo'stonliq*, *Chirchiq*, *Qibray* degan nomlarning o'ziyiq mazkur fikrlarni isbotlashi mumkin.

Til sistemasini tashkil etgan lisoniy birliklar, ularning o'zaro munosabati, bir-biri bilan bog'lanish qonun-qoidalari tilning strukturasi tashkil etadi. Masalan, toponimika til sistemasining onomastik bo'limi tarkibidagi bo'lakdir. O'z navbatida, toponimika ham sistema ichidagi sistema sifatida yana mayda qism va bo'laklardan tarkib topadi.

«Falsafiy ma'noda har qanday makrosistemaning ichki qurilishi, tashkil topishi mikrosistemalardan iborat bo'ladi.»¹³ Bu qoida tilning barcha sathlari va bo'limlari, shu jumladan, onomastika sathining toponimika bo'limida ham birdek amal qiladi. Masalan, Toshkent viloyati makrotoponim sifatida o'z ichida *Ohangaron*, *Parkent*, *Bo'stonliq*, *Chirchiq*, *Qibray* kabi mikrotoponimlarni qamrab oladi. O'z navbatida yuqoridagi joy nomlarining har biri mikrosistema sifatida yuzlab kichik ko'lamchalar asosiga qurilgan bo'ladi.

Joy nomlari **tizim↔qism↔bo'lak** munosabatidagi struktura sifatida uning qismlari xoh oykonim, xoh gidronim, hoh oronim bo'lsin, ushbu qismlarning ichki

¹¹ Нурмонов А., Рахимов А. Лингвосинергетикага кириш. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 29.

¹² Арнольд И.В. Современные лингвистические теории взаимодействия систем и среды // Вопросы языкознания. – М.: Институт русского языка им. В.В. Виноградова РАН, 1991. № 3. – С. 119.

¹³ Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Фан ва технология маркази, 2010. – Б. 196.

aloqasini tashkil qiluvchi bo'laklar o'zaro uzviy bog'langan. Ushbu uzviy bog'liqlik asosida vaqtlar o'tishi bilan joy nomlari boshqasiga ko'chadi. Masalan, ko'pgina gidronimlarning nomlari vaqt o'tishi bilan oykonimlarga ko'chgan. Buni Toshkent vohasi misolida ham ko'rish mumkin: *Chirchiq (daryo) – Chirchiq (shahar)*, *Ohangaron (daryo) – Ohangaron (shahar)*, *Sanganak (daryo – Parkent tumani) – Sanganak (qishloq – Parkent tumani)*, *Bo'zsuv (kanal – Chirchiq shahar) – Bo'zsuv (mavze – Chirchiq shahar)*, *Pskom (daryo – Bo'stonliq tumani) – Pskom (qishloq – Bo'stonliq tumani)* v.h.k.

Tadqiqotning ikkinchi fasli “*Joy nomlari va lingvomadaniyatshunoslik*” deb nomlangan. Madaniyatshunoslik fanining diqqat markazida inson turadi. Mazkur jihatlar tilshunoslikdagi antropotsentrik nazariya bilan hamohangdir. Madaniyatshunoslik insonning olam bilan lisoniy–ruhiy–ma'naviy faol munosabatini va bu munosabatlar uning ma'lum makondagi hayot va turmush tarzida namoyon bo'lishini, shaxsning ma'lum topomakondagi ijtimoiy va madaniy rolini o'rganadi. Buni Toshkent viloyati joy nomlarida ham kuzatish mumkin. Bu yerda yashab kelayotgan o'zbek, qozoq, tojik, rus kabi xalqlar o'zlari yashagan joyga o'z tillarida alohida nom berib kelishgan. Bu nomlar ostida mazkur xalqlarning madaniy qarashlari o'z aksini topgan. Masalan, o'zbek va tojik xalqlari qo'ygan nomlar ichida *saroy*, *kent*, *kon* leksemalari ko'p uchraydi: *O'rtasaroy*, *Kumushkon*, *Yangikent*, *G'azalkent*, *Parkent* kabi. Qozoq va qirg'iz xalqlari tomonidan yaratilgan toponimlarda *Qozoqovul*, *Qirg'izovul* ko'rinishidagi joy nomlari mavjud.

Toshkent viloyatidagi har bir nom shu yerda yashovchi aholi etnik qiyofasi, dunyoqarashi, e'tiqodi, urf-odati, kasb-kori, mashg'uloti va boshqa madaniy turmush tarzidan darak berib turadi. Viloyat hududidagi *Nanay*, *Sijjak*, *G'azalkent*, *Xo'jakent*, *Chimboyliq*, *Moylibolta*, *Polvonak*, *Bolg'ali*, *Kerovchi*, *Obirahmat*, *Navdak*, *Nevich*, *Samsarak*, *Posyolka*, *Ozodbosh*, *Do'rmon*, *Arg'in* kabi ko'plab joy nomlari bunga misol bo'la oladi.

Kishilik jamiyati doimiy rivojda bo'lib, u o'zgarib, takomillashib boradi. Ushbu jihatlar uning yashash makonining atamasi sifatida jamiyat a'zolari tomonidan qo'yilgan joy nomlarida ham aks etadi. Masalan, etnotoponimlar o'z tarixiy davrida o'sha hududlar kimlarga tegishli ekanligini bildirib turuvchi maxsus “kod” vazifasini ham bajargan. Tadqiqot obyektidagi *Sartovul*, *Qozog'ovul*, *Qirg'izovul*, *Telov*, *Qoraxitoy*, *Ungut*, *Uyshun*, *Uvak*, *Juduruq*, *Bo'stonliq*, *Qipchoq*, *Arg'in*, *Do'rmon*, *Qibray* va hokazo etnotoponimlar mazkur joylarning egalariga ishora qiladi.

Lingvomadaniyatshunoslikda til madaniyat elementi sifatida talqin etiladi, unda “ma'lum bir tilga mansub hamjamiyatning qadriyatlari va tajribasi tizimi, makon, vaqt, miqdor va sifatni idrok etish, bir so'z bilan aytganda, dunyoni ko'rish kodlangan.”¹⁴ Toshkent viloyatidagi soy nomlarining *Oltinbelsoy*, *Oqbuloqsoy*, *Xorliqsoy*, *Qo'chqaqsoy*, *Sariqmaydonsoy*, *Zarkentsoy*, *Sanganaksoy*, *Oqtoshsoy*, *Kuraksoy*, *Qumsaraksoy*, *Chavlisoy*, *So'qoqsoy* tarzida turlicha atalishida shu soylarning xalq tomonidan qanday idrok qilinishi asos vazifasini o'tagan.

¹⁴ Жетельска-Фелешко Э. Глядя на имена собственные // Вопросы ономастики. – 2010. № 2 (9). – С. 135.

Jumladan, ushbu gidronimlar ichida *Oqbuloqsoy*, *Oqtoshsoy*, *Sariqmaydonsoy* gidronimlari tarkibida kelgan rang toponimlaridagi oq rangi turkiy xalqlar lingvomadaniyatida qadimdan poklik, begʻuborlik, nafislik, totuvlik, tinchlik va doʻstlik kabi ramzlarni, sariq rangi ulugʻlik, buyuklik ramzini anglatgan.¹⁵

Rang komponenti bilan lisoniy markerlangan *Oqtov*, *Oqbuloq*, *Oqtosh*; *Qiziltogʻ*, *Qizilchan*, *Qizilsuv*, *Krasnogorsk* kabi joy nomlari uchun umumiy madaniy kod vazifasini ranglar ifodalab kelgan boʻlsa, oʻrganilgan tumanlar va Chirchiq shahrida ham mavjud boʻlgan *Jaloyir*, *Qipchoq*, *Yuzuruq* kabi joy nomlari uchun madaniy kod vazifasini etnonimlar ifodalamoqda.

“Til oʻzining nozik uygʻunligi bilan inson ruhiyati va madaniyatining tarqoq jihatlari, bir-biridan farqli tomonlarini oʻzida bir vaqtda mujassamlashtira oladi”.¹⁶ Ushbu fikrni qoʻllab-quvvatlagan holda, aytish mumkinki, xalq ruhiyati *Appaq*, *Argʻin*, *Aranchi*, *Oqqovoq*, *Parchayuz*, *Telov*, *Uvoq*, *Uchbov*, *Uyuvli*, *Qibray* kabi etnotoponimlarda; diniy eʼtiqod shakli oʻlaroq qoʻyilgan *Xoʻjakent*, *Nanay*, *Burchmulla*, *Shahidon*, *Farkat*, *Troitsk* kabi joy va ziyoratgohlarda; “*Mustaqillik*”, “*Turnalar*”, “*Baynalmilal jangchi*”, *Navoiy*, *Bobur* nomidagi memorial joy nomlarida yaqqol sezilib turadi.

Birinchi bobning uchinchi fasli “*Joy nomlarida milliy-madaniy belgilarning aks etishi*” deb nomlanadi. Toponimlar lingvokulturema sifatida muayyan geografik makonning nabotot va hayvonot dunyosi, maʼlum bir lingvomadaniyatga xos tarixiy va ijtimoiy-geografik hodisalar bilan bogʻliq boʻlgan axborotni oʻzida mujassamlashtiradi. Toshkent arealidagi koʻplab toponimlar oʻz semantikasida ana shunday tarixiy xarakterga ega boʻlgan lingvomadaniy manzarani aks ettiradi. Hududning tarixiy xarakterga ega bilim tuzilmalarni aks ettiruvchi toponimlarini, shartli ravishda, quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

a) hududda oʻsadigan mevali va manzarali daraxtlar, butalar, sabzavotlar, xushbuy oʻsimliklar haqida: *Qoʻshyongʻoq*, *Uzumzor*, *Oʻrikbel*, *Yakkapista*, *Yakkatut*, *Archali*, *Terakli*, *Maydontol*, *Chinorkent*, *Bodomzor*, *Piyozli*, *Gulbogʻ*.

b) tuproq va foydali qazilmalar haqida: *Zarkent*, *Kumushkon*, *Oltinbel*, *Sijjak*, *Qiziltogʻ*, *Biskom* (Pskom). Toshkent areali toponimlarida “tepa”, “soy”, “kent” komponentli toponimlar keng tarqalgan: *Oltintepa*, *Oltinbelsoy*, *Changisoy*, *Sariqmaydonsoy*, *Zarkentsoy*, *Oqtoshsoy*, *Qumsaraksoy*, *Zarkent*, *Kumushkent*.

v) hayvonot olami va qushlar haqida: *Qoʻngʻirbuqa*, *Takali*, *Serkaqirildi*, *Otyaylov*, *Toʻngʻizzov*, *Choʻchqasoy*, *Lochinuya*, *Laylak*, *Qoraqushxona*.

g) obyektlarning hajmi, shakli, rangi va joylashuvi haqida maʼlumot beruvchi toponimlar. Ushbu hodisa ham Toshkent vohasida keng tarqalgan: *Chuqursoy*, *Tovoqsoy*, *Qoramosor*, *Qorabuloq*, *Boshqizilsoy*, *Oqbuloq*, *Oqtpepa*, *Oqqoʻrgʻon*, *Krasnogorsk (Qiziltogʻ)*, *Yuqori Chirchiq*, *Oʻrta Chirchiq*, *Quyri Chirchiq*.

Dissertatsiyaning “**Joy nomlarining lingvomadaniy guruhlari**” deb nomlangan ikkinchi bobining birinchi fasli “*Aholining kasb, hunar va mehnat jarayonlari bilan bogʻliq joy nomlari*” deb nomlanadi. Toponimlarning

¹⁵ Аноркулов С. Немис ва ўзбек топонимлари лингвокультурема сифатида // Хорижий филология. – 2019. № 4. – Б. 84.

¹⁶ Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 2000. – С. 54.

nomlanishida toponim mansub bo'lgan hududda yashovchi xalqning iqtisodiy turmush tarzi, shug'ullanuvchi kasb-kori, xo'jalik faoliyati ham eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu xildagi joy nomlari, ayniqsa, Toshkentning hunarmandchilik qadimdan keng rivojlangan tumanlaridan bo'lgan Ohangaron, Parkent, Bo'stonliq, Qibray hamda nisbatan keyinroq paydo bo'lgan Chirchiq shahri mikrotoponimiyasida ko'p uchraydi. Mazkur yo'nalishdagi joy nomlarini umumlashtirib quyidagi kasb-hunarlar bo'yicha guruhlarga bo'lish mumkin:

a) metallga ishlov beruvchi ustalar va ular ishlab chiqargan mahsulot nomi bilan bog'liq bo'lgan joy nomlari: Parkent tumanidagi *Kumushkon* qishlog'i. Qishloqning nomi ilk o'rta asrlarda bu yerda qazilgan kumush koni bilan bog'liq. *Zarkent* qishlog'i shu atrofdagi tog'lardan qazib olingan xom ashyolar qishloqda qayta ishlanganligi sababli bu qishloqni zargarlar qishlog'i – *Zarkent* deb nomlashgan.

Shu tumanga qarashli *Krasnogorsk* shahri 1955-yilda uning janubi-sharqiy qismida Chavlisoyning yuqori oqimidagi polimetall rudalar koni ochilishi munosabati bilan tashkil etilgan. Uning nomi, shaharning sharqiy qismidagi mavjud tog' jinslari, ayniqsa, Boshqizilsoyning yuqori oqimi, qizg'ish va jigarrang tog' jinslaridan tashkil topganligiga muvofiq (*Красный гор*) atalgan.

b) tuproq yoki loyga ishlov beruvchi ustalar va ularning mahsulotlari nomi bilan bog'liq bo'lgan joy nomlari: *Jo'shali ovuli* Ohangaron tumani, *Samarchiq* qishlog'ining eng yuqori qismida bo'lgan. Tog'ning etagida qizg'ish tuproq – *jo'sha* shu nomning kelib chiqishiga sabab bo'lgan. *Jo'sha* bilan xonadonlardagi kigiz, qishki kiyim – to'n bo'yalgan.

v) to'quvchilik va tikuvchilik sohasidagi hunarlar nomi bilan bog'liq bo'lgan joy nomlari: *Kigizchi*, *Namatchi* (*Ohangaron t.*), *Ko'rpachi*, *Pardachi* (*Bo'stonliq t.*) kabi;

g) teriga ishlov berish kasbi bilan shug'ullanuvchi hunarmandlar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan joy nomlari: *Kosibjonbuva*, *Mahsichilar* (*Parkent*), *Poyabzalchilar* (*Chirchiq sh.*) kabi;

d) qishloq xo'jaligi, uy-ro'zg'or, ulov, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sohalari bilan bog'liq bo'lgan joy nomlari: *Egarchi*, *Tandirchi* (*Ohangaron t.*), *Kabobchi* (*Parkent t.*), *Qassoblik* (*Bo'stonliq t.*), *Go'jachilar* (*Qibray t.*), *Darvozachi* (*Chirchiq sh.*) kabi kasb-hunar bilan bog'liq joy nomlari ham uchraydi.

Parkent tumanidagi *Shampan* qishlog'iga 1947-yilda asos solingan. Uning atrofidagi hududlarda vinobop uzumlar yetishtirilishi va shu davrda fransuzlar bilan hamkorlikda ushbu mavzeda qurilgan vino zavodida qayta ishlanishi sababli qishloqning nomi majoziy ma'noda Fransiyaning *Shampan viloyati* nomi bilan atalgan.

Aholining mehnat jarayonlari bilan bog'liq joy nomlariga *Qibray* tumanidagi *Limonariya*, *Uzumzor*, *Olmazor*, *Gulzor*, *Gulbog'*, *Botanika*, *Mevazor*, *Seleksiya* kabi mavze, mahalla va ko'chalarni misol qilib keltirish mumkin.

e) savdo-sotiq bilan bog'liq joy nomlari: qadimdan Sharq bozorlari iqtisodiy, madaniy, hunarmandchilik maskani hisoblangan. "Bozor" iborasi xalqimiz lingvomadaniyatining milliy-madaniy manzarasida o'ziga xos ramziy

o‘rin egallagan konsept hisoblanadi. Tadqiq etilgan hududlarda “bozor” indikatori qo‘shilgan joy nomlari ko‘p. Jumladan, *Karvonbozor*, *Dehqonbozor*, *Hunarmandbozor*, *Yoymabozor*, *Qushbozori* (Chirchiq sh.), *Yangibozor* (Angren sh.), *Dehqonbozor*, *Eskibozor* (Parkent t.) *Gilambozor*, *Ko‘chatbozor* (Qibray t.), *Qoronqulbozor*, *Sarpobozor*, *Molbozor* (Bo‘stonliq t.) singari bozorlar, mavze va mahallalar nomlari uchraydiki, bular savdo-sotiqqa nisbat berib qo‘yilgan toponimlardir.

Chirchiq shahri nisbatan keyin (1935-yilda) tashkil etilganligi sababli bu yerda aholining qadimiy kasb-hunari bilan bog‘liq joy nomlari deyarli uchramaydi. Hududdagi aholining zamonaviy kasb-hunar va mehnat faoliyati bilan bog‘liq joy nomlariga “*Muhandislar*”, “*Sportchilar*”, “*Metallurglar*”, “*Energetiklar*”, “*Tadbirkorlar*”, “*Mashinasozlar*”, “*Transformorchilar*”, “*Elektriklar*”, “*Kimyogarlar*”, “*Temiryo‘lchilar*”, “*Quruvchilar*”, “*Poyabzalchilar*” kabi mavze va ko‘chalarni¹⁷ misol qilib keltirish mumkin.

Mazkur bobning ikkinchi fasli “*Urf-odatlar hamda qadriyatlar asosida shakllangan joy nomlari*” deb nomlanadi. Tadqiq etilayotgan Toshkent viloyati toponimlari semantikasida mazkur hudud aholisining urf-odatlarini, qadriyat va an‘analari bilan bog‘liq bir qancha lingvomadaniy xususiyatlarni ko‘rish mumkin. Bu xususiyatlar ushbu hududda istiqomat qilib kelayotgan aholining xalq og‘zaki ijodida, joy nomlarining xalqona etimologiyasida, dunyoqarashi bilan hamohang fikr-mulohazalari va mushohadalarida ko‘rinadi.

Tadqiqot obyektida o‘rganilgan urf-odatlar hamda qadriyatlar asosida shakllangan toponimlar quyidagi guruhlarga bo‘lib tahlil qilindi:

1. ***Qabila-urug‘ nomlari bilan atalgan toponimlar:*** *Sartovul*, *Turkqishloq*, *Bog‘isug‘d*, *No‘g‘oyqo‘rg‘on*, *Qoraqalpoq*, *Achamayli*, *Susam(ir)*, *Telov*, *Qorabaliq* – bu atamaning qorabaliq (oqar suvda yashaydigan baliq turi, rus tilida “marinka”)ga¹⁸ taalluqli joyi bor yoki yo‘qligi bahsli masala. Sababi, “qora” lingvokulturemasi turkiy xalqlar lingvomadaniyatida ko‘plab ma‘no ottenkasiga ega: *katta*, *ulkan*, *ulug‘*, *qudratli*, *kuchli*, *shiddatli*, *dahshatli*, *qo‘rqinchli*, *to‘da*, *xalq*, *qo‘shin*, *shimol*¹⁹ va hokazo, “*baliq*” esa “shahar” degan ma‘noni ham anglatadi.²⁰ Shunga ko‘ra ushbu toponim “*katta yoki ulug‘ shahar*” yoki “*shimoldagi shahar*” ma‘nolarini anglatishi mumkin. U holda toponim transonimizatsiya yo‘li bilan etnonimga ko‘chgan bo‘ladi. Yana bir jihat: agar bu etnotoponim bo‘lsa, u holda qorabaliq urug‘ning totemi bo‘lgan bo‘lishi ham mumkin.

2. ***Antropotoponimlar.*** Antroponimlarning toponimga aylanishida shaxs va obyekt munosabati muhim rol o‘ynaydi.²¹ Bu munosabatlar turlicha ifodalanishi mumkin: kishilarning kasbi, mashg‘uloti, mansabi, etnik taalluqliligi, laqabi kabi: *Chekeboy* – ushbu qishloqda Qolqu Chekeboy ismli qozoq chol yashab o‘tgan.

¹⁷ Самеджанов А., Таджибаев Ў. Чирчиқ шаҳар маҳаллалари тавсифи. –Тошкент: Mashhur-press nashriyot, 2021. – Б. 92-99.

¹⁸ Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – B. 148.

¹⁹ Кононов А.Н. Семантика светаобозначений в тюркских языках // тюркологический сборник. – М.: Наука, 1978. – С. 161.

²⁰ Кошғарий М. Девону луғотит турк (индекс луғат). – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 55.

²¹ Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 94-97.

Shinnibek qishlog'i – qishloqqa qozoq chorvador boylaridan biri Shinnibek asos solgan. (Ohangaron t.); *Toshpo'lat Dadaboyev* (Bo'stonliq t.) – bu inson sho'rolar davrida Pskom qishloq sho'rosi raisi bo'lib ishlagan.²² *Qapal qo'rg'oni* – Chorbog' GESi to'g'onining o'ng tomonidagi tepalikda joylashgan mazkur aholi punkti qozoq xalqining mard o'g'lonlaridan biri bo'lgan va 1560–1620- yillarda yashab o'tgan tarixiy qahramoni Qapal botir sharafiga qo'yilgan.²³

3. **Gidrotoponimlar:** Tadqiqot obyektlaridagi ko'pgina toponimlarga ularga yaqin joydagi gidronimlarning nomi ko'chgan: *Chetsuv, To'g'onboshi, Soyimiyona* (O'rtasoy), *Soyidaroz* (Uzunsoy), *Poyingisoy, Zarbuloq, Toshsoy, Oybuloq, Uzunbuloq* kabi.

4. **Litotoponimlar.** Tog'li hududlarda yashovchi aholi ba'zi qishloq, ovullarni tosh bilan bog'liq oronimlar nomi bilan bog'laydilar. Aslida, oronim yoki toponimlar tarkibida keluvchi "tosh" topoformanti tog' ma'nosida ham keladi: *Oqtosh* – "Kvars va tarkibida qimmatbaho tog' rudalari bo'lgan oq rangdagi toshli balandlik va uning yonidagi qishloq."²⁴ *Shoshtepa, Choltosh* – avvalgi nomi Oqtosh. Chunki bu yerda xomashyo sifatida oqtosh, ya'ni ohaktosh qazib olingan.

5. **Urf-odatlar asosida qo'yilgan toponimlar:** Ko'pgina joy nomlarining etimologiyasi haqida o'sha joyga mansub aholining lingvomadaniyatida o'ziga xos yaratilgan mavjud. Ushbu jihat xalqning joy nomlari bilan bog'liq asotirlar, rivoyatlar, naqlar o'ylab topish kabi folkloristik urf-odatiga asoslanadi. Masalan, *Selenkent* – ushbu qishloqda Selenkent bobo bulog'i va daraxti ham bor. Ushbu jihat mahalliy aholining tog' kulti bilan bog'liq. Joy nomining ma'nosi so'ralganda, mahalliy aholi uni antropotoponimga bog'lab qo'ya qolishdi. Bizningcha, ushbu joy nomi uch so'zning qo'shiluvidan hosil bo'lgan: *sel+in+kent*, ya'ni "sel quyilib tushadigan yerga yaqin joyda joylashgan qishloq" tarzida. O'zbek tilining izohli lug'atida "inmoq" so'zining lug'aviy ma'nosi "yuqoridan pastga tushmoq" tarzida izohlangan.²⁵

Grum – ushbu qishloqning nomi ruscha abbreviatura "GRUM"dan olingan ("граница разведки угольного месторождения" so'zlarining bosh harflaridan). Ruslarda joy nomlarini abbreviatura bilan atash odati ham bor: БАМ, Соцгород kabi.

Posyolka (Parkent t.) – ruscha "поселение" – joylashuv ma'nosini anglatuvchi so'z bilan atalgan qishloqcha. Ushbu joyning paydo bo'lishi chor Rossiyasi davriga to'g'ri keladi. 1886-yilda chiqarilgan "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom"dan so'ng bu yerga bir guruh rus dehqon (mujik)lari ko'chirib kelingan ekan.²⁶

Bobning uchinchi fasli "*Aholining dunyoqarashi, e'tiqodi va diniy tafakkuri bilan bog'liq joy nomlari*" deb nomlanadi. O'rganilayotgan hududlarning toponimik manzarasiga ko'z tashlaganda aholining diniy tafakkur qarashlarini aks ettiruvchi ko'plab joy nomlari borligini ko'rish mumkin. Masalan, *Xo'jakent*,

²² Исмонов О., Миркомиллов М. Бўстонлик: кеча, бугун, эртага. – Тошкент: Фан ва технология, 2019. – Б. 87.

²³ Shu mualliflar. Ko'rsatilgan manba. – B. 56.

²⁴ Nafasov T., Nafasova V. O'zbek tili toponimlari o'quv izohli lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – B. 42.

²⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. И ҳарфи. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Б. 212.

²⁶ Хусомиддинов С., Шерматов М. Паркент тумани. – Тошкент: Ўқитувчи, 2006. – Б. 59.

Nanay, Burchmulla, Shahidon, Shayx Umar Valiy Bog'istoniy ziyoratgohi, Ko'k to'nli ota qabri (Bo'stonliq tumani); *Farkat, Parpata ota ziyoratgohi, Hazrati Ali buva ziyoratgohi* (Parkent tumani); *Troitsk* (xristian dinida ota, o'g'il va muqaddas ruh uchligi – "*Troitsa*"ni anglatuvchi atamaning o'zgargan shakli, Chirchiq shahar); *Oqqovoq ota ziyoratgohi* (Qibray tumani) v.h.k. Agiogidronimlar – diniy e'tiqod va tushunchalar, xalq urf-odatlarini hamda marosimlari asosida muqaddas, ilohiy deb qaralgan narsa, voqea-hodisalar, joy bilan atalgan suv obyekti nomlaridir: *Oqsoqota, Surenotasoy, Avliyo ota bulog'i* (Parkent t.), *Qo'chqor ota, Chinor bobo, Xo'jabuloq* (Ohangaron t.), *Chinor buva bulog'i* (Bo'stonliq t.), *Buvra ota bulog'i* (Qibray t.) kabi. Toshkent vohasining tadqiq qilinayotgan hududlarida, asosan, oroobyekt nomlarining yasashida diniy tushunchalar bilan bog'liq quyidagi komponentlar faol ishtirok etganligini ko'rish mumkin: a) **Xo'ja appelyativi asosida yasalgan oronimlar**: *Xo'jatosh* (ushbu ulkan tosh odam tasviriga o'xshaganligi uchun shunday nomlangan. Xo'ja so'zi, garchi forscha bo'lsa-da, mazkur hududda yashovchi aholining islomgacha bo'lgan davrda shakllangan totemistik diniy e'tiqod shakli o'laroq, tog' kulti sifatida, uni muqaddaslashtirish, ulug'lashtirishidan kelib chiqqan holda qo'shilgan lingvokulturema, deb o'ylaymiz), *Xo'janing tog'i, Xo'jai Surx ota* (Ohangaron t., tog' tepaligi); b) **Said appelyativi asosida yasalgan oronimlar**: *Said Ahmad ota* (Ohangaron t., tog' tepaligi); v) Ota komponentidan tashkil topgan oronimlar: *Oqsoqota, Nurakiota, Surenota* (Parkent t., tog'), *Qo'chqorota, Ko'chkinchak ota* (Ohangaron t., tog' tepaligi); g) **Bobo komponentidan tashkil topgan oronimlar**: *Boboitog', Boboi Ob, Boboi Setan* (Ohangaron t., tog' tizmasi); d) **Avliyo komponentidan tashkil topgan oronimlar**: *Muzruk avliyo, Buzruk avliyo* (Ohangaron t., tog' tepaligi).

Tadqiqotning uchinchi bobi "**Joy nomlarining nomlanish motivida madaniy omil va folklor namunalari**" deb nomlanadi. Bobning birinchi fasli "*Joy nomlarida etnomadaniy omillar*"ga bag'ishlangan. Toponimika sohasidagi keyingi xorijiy va rus lingvomadaniy tadqiqotlarida toponimga nisbatan "madaniy kod" atamasi qo'llanilmoqda. Ushbu atamani tadqiqotchi olim V. Ibragimova shunday ta'riflaydi: "Madaniy kod xalqlar ajdodlaridan meros bo'lib qolgan madaniyatni anglashning kalitidir; bu madaniyatni aniqlash imkonini beruvchi qandaydir shaklda kodlangan ma'lumotdir."²⁷

Toshkent vohasi toponimiyasining o'ziga xos jihatlaridan biri shuki, u toponimik oqimlar kesishmasida joylashgan bo'lib, bu hududga turli xronologik pog'onadagi nomlar muayyan ketma-ketlikda kirib kelgan: forscha, sug'dcha, turkcha, arabcha. Hozirgi turkiy tillar va o'zbek tilida uchrovchi sug'd elementlari qadimiy davrlarda yuz bergan tillar aloqasi natijasidir. Chunonchi, o'zbek tilidagi *xom, ko'p, kalta, katta* so'zlari sug'dchadir.²⁸ Qadimiy sug'd elementlari Toshkent vohasi toponimikasida ham qisman saqlanib qolgan. Jumladan: *G'azak, Anuket,*

²⁷ Ибрагимова В.Ф. Культурный код крымских татар в оронимах Крыма // Культурный ландшафт регионов. Том 3. № 3-4. 2021. – С. 69.

